

O'RTA MAXSUS TA'LIM PEDAGOG XODIMLARINING KASBIY ETIKASI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY JIHATLAR

Serjanova G.S.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti magistranti

Kudaybergenova T.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti professori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18835321>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'rta maxsus ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning kasbiy etikasi masalalari tahlil qilinadi. Pedagogik faoliyatda etik me'yorlarga rioya etishning mazmuni, ahamiyati hamda ta'lim sifati va tarbiyaviy jarayonga ta'siri yoritib beriladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim sharoitida pedagog kasbiy etikasining dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: kasbiy etika, pedagog xodim, o'rta maxsus ta'lim, pedagogik mas'uliyat, axloqiy me'yorlar, pedagogik takt.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. O'rta maxsus ta'lim muassasalari esa malakali, raqobatbardosh va yetuk mutaxassislarni tayyorlashda muhim bo'g'in hisoblanadi. Ushbu jarayonda pedagog xodimlarning kasbiy mahorati bilan bir qatorda, ularning axloqiy qiyofasi va kasbiy etikaga amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagog – bu nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi shaxsdir. Shu sababli pedagog xodimlarning kasbiy etikasi masalasi ta'lim sifati, tarbiya samaradorligi hamda jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Kasbiy etika – bu muayyan kasb egalarining faoliyat jarayonida amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy me'yorlar, qoidalar va tamoyillar majmuasidir. Pedagogik kasbiy etika pedagogning o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarini tartibga soladi.

O'rta maxsus ta'lim pedagog xodimlarining kasbiy etikasi quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchi shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- adolat va xolislik tamoyillariga rioya qilish;
- pedagogik takt va muloqot madaniyatiga amal qilish;
- kasbiy mas'uliyat va halollikni saqlash;
- kasbiy faoliyatda shaxsiy manfaatlarni ustun qo'ymaslik.

Pedagog kasbiy etikasi nafaqat tashqi xulq-atvorda, balki ichki e'tiqod, kasbga sadoqat va professional vijdon orqali namoyon bo'ladi.

O'rta maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilar muayyan kasbni egallash bilan birga, shaxs sifatida shakllanish bosqichida bo'ladilar. Shu bois pedagogning har bir xatti-harakati, so'zi va munosabati o'quvchilarning dunyoqarashi va xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Pedagog tomonidan etik me'yorlarga rioya etilishi ta'lim muassasasida sog'lom ma'naviy-psixologik muhitni shakllantiradi. Baholash jarayonida adolatni ta'minlash, o'quvchilarga nisbatan kamsitish holatlariga yo'l qo'ymaslik, ularning fikrini hurmat qilish pedagog kasbiy etikasining muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Pedagogik etika - o'qituvchi axloqiy-ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi me'yor tuygusi yoki xulq va odob qoidalariga rioya qilishi demaqsir. Pedagogik nazokat o'qituvchining

o'quvchilar bilan o'zaro munosabatini tashkil qilish vositasi. Psixologik til bilan aytilganda, nazokat insonning bir qolipdagi barqaror tasavvurlarida mujassamlashgan shaxsiy insoniy xislatlarining yigindisidir. Pedagogik nazokat me'yorlari o'qituvchidan, avvalo, komil insonga xos xislatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Zero, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishning asosiy maqsadlaridan biri komil inson tarbiyasi bo'lib, u davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan. O'ngi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish o'qituvchi zimmasida. Shunday ekan, hozirgi demokratik jamiyat o'qituvchisining o'zi avvalo komil inson bo'lishi, mukammal bilimlar sohibi, yetuk insoniy fazilatlar egasi bo'lishi zarur. Shuningdek, pedagog xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ham kasbiy etika katta ahamiyatga ega. Hamkasblarga hurmat, hamkorlik va o'zaro yordam muhitining mavjudligi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi pedagog kasbiy etikasiga yangi talablarni qo'ymoqda. Masofaviy ta'lim, elektron resurslar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda pedagog raqamli etikaga amal qilishi zarur. Hozirgi kunda informatsion jarayonning jadal rivojlanishi o'quvchi ruhiyatiga ham keskin ta'sir qiladi. Ularning psixologik xususiyatlarini, ruhiy holatini bir maromda ushlab turish uchun o'qituvchidan kuchli iroda, muomala madaniyati bo'lish va bosiqlik, pedagogik mahoratning keng imkoniyatlaridan foydalanish tapab qilinadi. Yosh avlod tarbiyasida o'qituvchi eng qiyin vaziyatlarda ham pedagogik mahoratning quyidagi holatlariga rioya qilishi vaushbu faoliyatga o'zini moslashtirishi lozim:

- emotsional his - tuyg'ular va kechinmalarda, stress va affekt holatlarida o'zini boshqara olish qoidalariga rioya qilish;
- o'zining xulq-atvor xususiyatlarini doimiy bir muvozanatda saqlagan holda qo'llash;
- bachkana qiliqlar, ortiqcha xatgi-harakatlar, pedagogik etikaga to'g'ri kelmaydigan bema'ni so'zlardan o'zini qat'iy tiyish;
- o'qituvchiga xos notiqlik san'ati sirlarini puxta egallash, o'quvchi shaxsiga og'ir ta'sir etadigan, uning ruhiyatini jarohatlaydigan iboralarni ishlatmaslik, muomalada, jazo metodlaridan foydalanshpda ko'pol va dag'al so'zlar qo'llamaslik;
- dars jarayonida hissiy, akdiy bilim berishda belgilangan muayyan psixologik va fiziologik me'yorlarga asoslanish, manmanlikka yo'l qo'ymaslik, o'z holatidan boshqa holatga o'tishdan saqlanish;
- o'qituvchilar jamoasi va o'quvchilar bilan, ota - onalar hamda notanish kishilar bilan munosabatda kommunikativ qobiliyatning rasmiy va qat'iy muomala hamda ishbilarmonlik uslublariga asoslanish.

Xususan, internet makonida pedagogik obro'-e'tiboriga putur yetkazuvchi holatlardan tiyilish, mualliflik huquqlariga rioya qilish, o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish kasbiy etikaning muhim jihatlaridan biridir. Zamonaviy pedagog nafaqat bilimli, balki axloqiy jihatdan mas'uliyatli bo'lishi talab etiladi.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, o'quvchilarni erkin, mustaqil fikr yuritishga va ongli intizomga o'rgatish, intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, o'qituvchidan chuqur bilimga, kasbiy malaka va ko'nikmalarga, yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lishni talab qiladi. Shu jihatdan o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatida "Pedagogik takt" muhim pedagogik qobiliyat sifatida e'tirof

etiladi. Takt so'zi azaldan pedagogikada tarbiyaviy ta'sir etish ma'nosini bildiradi va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatni boshqarishga yordam beruvchi axloqiy kategoriya sifatida ta'riflanadi. O'quvchilar bilan muloqot jarayonida ro'y beradigan eng og'ir vaziyatlarda ham pedagogik takt o'qituvchidan mutlaqo bosiqlikni, suhbatdoshiga nisbatan hurmat va ehtiromni talab qiladi. Pedagogik takt - o'qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo'lib, o'quvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta'sir o'tkazish, muloqotni insonparvarlik tuyg'ulari asosida o'rnatish o'lchovi, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib toptirish ko'nikmalarini hosil qilish shaklidir. Pedagogikada o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabati ularning yosh xususiyatlariga qarab belgilanishi va bu qonuniyatga amal qilinishi qat'iy talab qilinadi. Shunday ekan. o' q i t u v c h i ta'lim-tarbiya jarayonida xali t u l i q shakllanmagan ta'sirlarga va ruhiy kechinmalarga tez beriluvchi, ota-onasining sevimli farzandi bo'lgan murg'ak qalb egalari bilan m u l o q o t qilayotganligini aslo unutmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda, o'rta maxsus ta'lim pedagog xodimlarining kasbiy etikasi ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogning kasbiy etikaga rioya qilishi o'quvchilarning shaxsiy kamoloti, ta'lim sifati hamda ta'lim muassasasining ijtimoiy nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois pedagog xodimlarda kasbiy etik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta'lim va tarbiya sohasini rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. – Toshkent, 2020.
2. Холиқов А. Педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. Т.: «IQTISODMOLIYA» нашриёти, 2010,-312 бет.
3. Muslimov N.A. Kasbiy pedagogika. – Toshkent: Innovatsiya, 2017.